

“TINCHLIK” O‘ZBEK MILLIY QADRIYATINING LINGVOMADANIY ASPEKTI

Usmanov Farxad Faxriddinovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Andijon davlat universiteti

***Annotatsiya.** Lingvomadaniy tahlil milliy madaniyatning ustuvor qadriyatlarini aniqlash uchun xizmat qilmog‘i darkor. Shu ma‘noda, lingvomadaniyatda ahamiyati bilan ajralib turadigan, jamiyat a‘zolarida ijobiy munosabat va o‘ziga intilish munosabatini uyg‘otadigan konseptlar qadriyat maqomiga ega bo‘ladi. Ushbu qadriyatlar sirasiga tinchlik qadriyatini kiritish mumkin. Mazkur ishda ushbu qadriyatning lingvomadaniy aspekti xususida so‘z yuritiladi, uning assotsiativ potentsiali aniqlanib, assotsiatsiyalar mazmuniy guruhlarga ajratiladi hamda ma‘lum xulosalarga kelinadi.*

***Kalit so‘zlar:** lingvomadaniyat, konsept, qadriyat, assotsiatsiya, assotsiativ maydon.*

Avvalo, tinchlik umumbashariy qadriyat hisoblanadi. “Insoniyat tarixining so‘nggi 3400 yilida yer yuzida 268 yil urush bo‘lmagan” [1], xolos. Turli olimlarning qadriyatlar tasnifida u siyosiy qadriyat sirasiga kiritiladi. O‘zbek millati o‘zining ko‘p asrlik tarixida ko‘plab siyosiy buhronlarga va bosqinlarga guvoh bo‘lgan. Tinchlikni qadrlashni muqaddas dinimiz ham o‘rgatadi: Abu Fazl Abbos ibn Abdulmuttalib roziyallohu anhu aytadilar: "Yo Allohning Rasuli, menga Alloh taolodan so‘raydigan biror narsa o‘rgating", dedim. U zot alayhissalom: "Allohdan ofiyat so‘ranglar", dedilar. Bir necha kun o‘tib keldim-da "Yo Allohning Rasuli menga Alloh taolodan so‘raydigan biror narsa o‘rgating", dedim. Nabiy alayhissalom: "Ey Abbos, ey Rasulullohning amakisi, Allohdan dunyo-yu oxirat ofiyatini so‘rang", dedilar (Imom Termiziy rivoyati). Bunda ofiyat tinchlik, xotirjamlik, salomatlik [2, 105] demakdir.

Tinchlik leksemasining lug‘at defnitsiyalariga ko‘ra u urush-janjaldan xolilikni ham, umuman, g‘ala-g‘ovur, shovqin-suronsizlikni, osoyishtalikni ham ifodalaydi [2, 105]. Masalan: Urush bilan besh kunda bitadigan muammo tinchlik bilan besh yilda bitsa, ikkinchi yo‘lni tanlash kerak! (O‘.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar) // Nilufar oyisining hamma savollariga «keyin, keyin aytib beraman. Qo‘rqmang, tinchlik, tinchlik, oyijon» deb javob berdi-da, ukalarini bezovta qilmaslik uchun oshxonaga raskladushka qo‘ydirib, yotib qoldi (O.Yoqubov. Billur qandillar)

O‘zbek tilining paremiologik fondida tinchlikning ahamiyati haqidagi maqollar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ularda uning hayotdagi katta ahamiyati aks etish bilan birga (Tinchlik bilan el ko‘karar, Yomg‘ir bilan — yer; Tinchlik urushni yengar; Tinchlik – farovonlik yo‘ldoshi; Urush – yo‘qlik, Tinchlik – to‘qlik; Urush – ofat, Tinchlik – farog‘at; Qori erib, tog‘i qolar, Urush o‘tib, dog‘i qolar; Qo‘shning tinch – sen tinch), uning to‘qlikdanda ustun ekani ifodalanadi: Och bo‘l, omon bo‘l; Och yur, tinch yur; Och qornim – tinch qulog‘im.

Biz uchun hozirgi zamon o‘zbek tili tashuvchisining mentalligida tinchlik konseptining assotsiativ maydonini kuzatish ham qiziq. Ushbu erkin assotsiativ tajribada mamlakatimizning turli hududlaridan 272 kishi ishtirok etgan bo‘lib, ularning “tinchlik” stimuli so‘ziga berilgan birinchi reaksiyalari quyidagicha:

TINCHLIK: xotirjamlik 49; osoyishtalik 16; baxt 10; erkinlik 9; musaffo osmon 7; Qo‘shning tinch – sen tinch 6; vatan 4; shukronalik 4; yurt tinchligi 3; Yurtning tinch – sen tinch 3; halovat 3; Vatanning tinch – sen tinch 3; O‘zbekiston 3; oila 3; yurtimizning tinchligi 2; erkin hayot 2; vatan tinchligi 2; vatanimiz 2; ko‘ngil xotirjamligi 2; qalb xotirjamligi 2; sabr 2; tinch hayot 2; tinchlik 2; totuvlik 2; farovon hayot 2; farovonlik 2; kabutar 2; oilaviy xotirjamlik 2; Alloh taoloning buyuk ilohiy ne‘matlaridan biridir, armiya, ahil-inoq yashash, bebaho ne‘mat, bemalol ko‘chaga chiqa olish, behisob boylik, baraka, barcha ishning asosi, barchamizni xohishimiz, baxtli bo‘lishning birinchi tayanchi, birinchi o‘rinda yurtimiz tinchligi, boylik, buyuk ne‘mat, vaqtida uxlash, o‘qish, ovqatlanish, kelajakni o‘ylash, vatan va oila tinchligining qadriga yetish, vatan tinchligi va oilaviy xotirjamlik, vatan tinchligi, xalq tinchligi, vatan, xalq, bayram, duo, turli xil millat vakillarining bir joyga jamlanib, xursandchilik qilishi, vatanim, vatanim tinchligi biz uchun, vafodorlik, davlatlar o‘rtasida tinchlik, dam olish, xotirjamlik, doimo sulh tuzishga muvaffaq bo‘lish, dunyomiz tinch bo‘lsin, urush bo‘lmasin, do‘stlik, yomonlik qilmaslik, jamiyat tinchligi, janjal, ibodat, iqtisodiy o‘sish, Inson uchun tinchlik oliy ne‘matlardan biri va uni qadriga yetishi kerak va uni himoya qilishi shart, inson hayotida birinchi o‘rinda turuvchi boylik, insoniyatning oliy maqsadi, katta baxt, qadri yuqori, qalb osoyishtaligi, sakiyat, quyoshli tong, Mening yashab turganim oilam, ota onam va barcha-barchasi, mehnatlarning rohati, mehnat, millatlararo totuvlik, mukammal kelajakka eltuvchi sog‘lom fikrlash uchun imkon, ozodlik, oilam tinchligi, Oilang tinch – sen tinch, oqibat, omonlik, ortiqcha xavotirning yo‘qligi, osmon, osmon musaffoligi, Osoyishta va tinch yurtga hamma narsa yarashaveradi, osoyishta hayot, osuda tun, osudalik, sog‘lik, sog‘lomlik, sokin hayot, sokinlik, sotib olib bo‘lmaydigan boylik, taraqqiyot poydevori, taskinlik, tahlikasiz yashash, Tinchlik – bu muqaddas narsadur yurtimiz tinch bo‘lsa elimiz tinchdur, el tinch bo‘lsa oilamiz tinchdur, tinch osmon, tinch osuda hayot, tinchlik – bu xotirjam turmush, tinchlik – oliy ne‘mat, tinchlik bebaho, Tinchlik bor yerda

farovonlik hukm suradi, tinchlik bor yerda hamma narsa o‘z o‘rnida bo‘ladi, Tinchlik bu avvalo oiladan vatandan bilinadi, tinchlik bor joyda farovonlik totuvlik o‘shish intilish bo‘ladi, tinchlik bu ko‘ngil xotirjamligi, tinchlik bu huzur-halovat, Tinchlik bu shaxsan men yashab turgan vatan, shahar, tuman, qishloq va oilam, Tinchlik bo‘lgan joyda baraka bo‘ladi, Tinchlik bo‘lsa hamma narsam bor degani, Tinchlik deganda hozirgi atrofim ko‘z oldimga keladi, Tinchlik so‘zi mening xayolimga sharqirab oqayotgan tiniq suvlar, tandirdan uzilgan issiq nonning shirin ifori, bobojon va buvijonlarimizning mehr-muhabbat bilan qilgan duolari, bolajonlarning sho‘x-shodon kulgilari emas, afsuski, o‘zga notinch yurtlarda bir burda non suvga zo‘r bo‘lib och nahor yurganlar, qo‘rqib-qo‘rqib pana-pana ovloqlarda uxlayotgan bolalar, dilbandidan ayrilib qolgan ota-onalarning oh-u zori keladi, Tinchlik so‘zini eshitganimda birinchi bo‘lib qalbda tinchlik hamma narsadan muhim degan xayol keladi, tinchlik tuman boylik, tinchlik faqat bizni mamlakatda emas, butun dunyoda bo‘lmog‘i lozim, Tinchlik – bu misoli havodir. Insonga havo qanchalik kerak bo‘lsa, tinchlik ham shunchalik kerak, Tinchlikdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik, tinch-totuv hayot, tinch-totuvlik, tong saharda qushlarning ovozi (bombani emas), turg‘unlik, O‘zbekiston keladi chunki boshqa yurtlarni ko‘ryapmiz tinchlik emas, shu sababli tinchlikni qadriga yetishimiz kerak, uy, ulug‘ ne‘mat, urushdan yiroq, urush-janjallardan xoililik, urushsiz hayot, Falastindagi xunrezliklardan ta’sirlanish, xavf-xatarsiz nafas olgan har bir soniyamiz, xalovat, xotirjam nafas olish imkoniyati, Xudoga shukr, shunday yurtda yashayotganim uchun, xursandchilik, hamma narsa, har tongda erkin nafas olib olamni tomosha qilish, huzur va halovat bo‘lmasa tinchlik tatimaydi, hurmat, chegaralar mustahkamligi, shaxsiy o‘shish, omad, shaxslar mustaqilligi, el yurt, Mahalla-ko‘y va oila tinch bo‘lsa odamda ichki xotirjamlik bo‘ladi. Eng asosiy narsa, eng buyuk ne‘mat, amalimizni erkin bajarishimiz imkoniyati, eng kerakli ne‘mat, eng katta baxt, eng oliy qadriyat, eng oliy ne‘mat, erkin nafas olish, Erta tongda sevgan kasbim bilan bandman, ertalab xotirjam uyg‘ona olish va ishdan uyga shomdan keyin ham xotirjam qayta olish, yurt, Yurt tinchligi oila tinchligidir, yurt, oila, Yurting tinch-uying tinch deydi xalqimiz. Boshqalardan ko‘proq tinchlikni Allohdan men so‘rab qolsam kerak, chunki ikkala farzandim ham harbiy 1; (272+150+29+121+0)

Keltirilgan assotsiatsiyalardan ma’lum bo‘ladiki, tinchlikka munosabat ijobiy va uning yadrosi quyidagi assotsiatsiyalardan tashkil topadi: xotirjamlik 49 marta (18%); osoyishtalik 16 marta (5, 8%); baxt 10 marta (3, 6%); erkinlik 9 marta (3, 3%); musaffo osmon 7 marta (2, 5 %); Qo‘shning tinch – sen tinch 6 marta (2, 2%). Shuningdek, tinchlikni moddiy qobiqda tasvirlash uchun musaffo osmon, kabutar, uy kabilardan foydalaniladi. E’tiborlisi, o‘zbek millati tinchlikni erkinlik va ozodlik (erkinlik, erkin hayot, har tongda erkin nafas olib olamni tomosha qilish, amalimizni erkin bajarishimiz imkoniyati erkin nafas olish, ozodlik reaksiyalari) hamda

qo‘shnining, vatanning tinchligi (Qo‘shning tinch – sen tinch; Yurting tinch – sen tinch, Vatanning tinch – sen tinch, O‘zbekiston, yurt, yurtimizning tinchligi, vatan tinchligi, vatanimiz reaksiyalari) bilan faol bog‘laydi.

1-jadval

Tinchlik konseptining assotsiativ maydoni mazmuniy uyalar

Uyaning nomi	Reaksiyalar	Uyadagi reaksiyalar soni	Uyaning maydondagi salmog‘i %
Xotirjamlik	Osoyishtalik, halovat, erkin hayot, ko‘ngil xotirjamligi, qalb xotirjamligi, oilaviy xotirjamlik, vatan tinchligi va oilaviy xotirjamlik, dam olish, xotirjamlik, qalb osoyishtaligi, sakiynat, quyoshli tong, osoyishta hayot, osuda tun, osudalik, sokin hayot, sokinlik, tinch, osuda hayot, tinchlik – bu xotirjam turmush kabilar	92	33,8
Tinchlik ramzi	Musaffo osmon, kabutar, osmon, vatan, oilam, O‘zbekiston, osmon musaffoligi, tinch osmon, Tinchlik – bu misoli havodir. insonga havo qanchalik kerak bo‘lsa, tinchlik ham shunchalik kerak, uy kabilar	43	15,8
Tinchlikning umumiy tavsifi	Alloh taoloning buyuk ilohiy ne‘matlaridan biridir, barchamizni xohishimiz, baxtli bo‘lishning birinchi tayanchi, birinchi o‘rinda yurtimiz tinchligi, Vatan tinchligi, xalq tinchligi, xalq, bayram, duo, turli xil millat vakillarining bir joyga jamlanib, davlatlar o‘rtasida tinchlik, yomonlik qilmaslik, tahlikasiz yashash, tinch-totuv hayot, xavf-xatarsiz nafas olgan har bir soniyamiz kabilar	39	14,3
Tinchlik – imkoniyat sifatida	Erkinlik, farovon hayot, farovonlik, vaqtida uxlash, o‘qish, ovqatlanish, kelajakni o‘ylash, ibodat, iqtisodiy	35	12,9

	o'sish, mehnat, mukkamal kelajakka eltuvchi sog'lom fikrlash uchun imkon, ozodlik, omonlik, sog'lik, sog'lomlik, taraqqiyot poydevori, tinchlik bor yerda farovonlik hukm suradi kabilar		
Tinchlik qadri	Shukronalik, bebaho ne'mat, behisob boylik, baraka, barcha ishning asosi, boylik, buyuk ne'mat, vatan va oila tinchligining qadriga yetish, Dunyomiz tinch bo'lsin, urush bo'lmasin, Inson uchun tinchlik oliy nematlardan biri va uni qadriga yetishi kerak va uni himoya qilishi shart, katta baxt, qadri yuqori, sotib olib bulmaydigan boylik kabilar	32	11, 8
Tinchlik shartlari	Qo'shning tinch – sen tinch, Yurting tinch – sen tinch, Vatanning tinch – sen tinch, sabr, Armiya, ahil-inoq yashash, vafodorlik, doimo sulh tuzishga muvaffaq bo'lish, do'stlik, mehnatlarning rohati, Oilang tinch – sen tinch, hurmat, chegaralar mustahkamligi kabilar	25	9, 1
Urush	Janjal, Tinchlik so'zi mening xayolimga sharqirab oqayotgan tiniq suvlar, tandirdan uzilgan issiq nonning shirin ifori, bobojon va buvijonlarimizning mehr-muhabbat bilan qilgan duolari, bolajonlarning sho'x shodon kulgilari emas, afsuski, o'zga notinch yurtlarda bir burda non suvga zo'r bo'lib och nahor yurganlar, qo'rqib-qo'rqib pana-pana ovloqlarda uxlayotgan bolalar, dilbandidan ayrilib qolgan ota-onalarning oh-u zori keladi, Falastindagi xunrezliklardan ta'sirlanish kabilar	3	1, 1

Kutilganidek, berilgan tinchlik stimuli so'zining aspektlaridan xotirjamlik va osoyishtalikka katta e'tibor berilgan. Keyingi o'rinlarda tinchlikning ramzi sifatida

asosan kabutar, musaffo osmon, havo kabilardan iborat mazmuniy uya joylashgan bo‘lib, ular ham qalbgga sokinlik xotirjamlik beruvchi obrazlardir. O‘zbek milliy mentalligi tinchlik deganda u berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni ham yodga oladi va tinchlikning qadriga yetishga undaydigan reaksiyalar yuzaga kelish holatlari ham talaygina. So‘ng tinchlikning shartlari sifatida qo‘shnining tinchligi, Vatan tinchligi kabilarni ham muhim hisoblaydi. Tinchlik stimuli “urush” mazmunli 3 ta assotsiatsiyani yuzaga keltirgan. Qiyos uchun, A.I.Xlopova o‘tkazgan 200 nafardan rus va nemis respondentlari ishtirok etgan erkin assotsiativ tajribada tinchlik stimuliga urush reaksiyasi eng yuqori chastotaga ega bo‘lib, rus lingvomadaniyatida keyingi reaksiyalar планета (sayyora), Земля (Yer), дружба (do‘stlik), свобода (erkinlik)lardan iborat. Nemis lingvomadaniyatida esa urushdan keyingi reaksiyalar Taube (kabutar), Ruhe (xotirjamlik), Welt (olam), Freude (quvonch)lardan iborat [3].

Ko‘rinadiki, o‘zbek mentalligi sodda va, qaysidir ma’noda, normativligi bilan ajralib turadi. Assotsiatsiyalarning asosiy qismi tinchlikning qadri baland holat ekani, hatto uning barcha narsaning asosi ekanini (hamma narsa, Tinchlik bo‘lsa hamma narsam bor degani, barcha ishning asosi, mening yashab turganim – oilam, ota-onam va barcha-barchasi reaksiyalari), uni asrash kerakligini bevosita yoki bilvosita anglatib turadi.

Adabiyotlar:

1. Chris Hedges 'What Every Person Should Know About War' // The New York Times. July 6, 2003. URL: <https://www.nytimes.com/2003/07/06/books/chapters/what-every-person-should-know-about-war.html>.

Murojaat sanasi: 24. 04. 2024.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: “О‘zbekiston nashriyoti”, 2020. – 608 б.

3. Хлопова А. И. Базовая ценность МИР в немецкой и русской лингвокультурах // Филологические науки. Вопросы теории и практики 2023. Том 16. Выпуск 10. – С. 3144-3149.